

**Turgunov Mirabdulla Dexkanovich**

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va  
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali, Texnologiyalar fakulteti,  
agrobiologiya va dorivor o'simliklar yetishtirish kafedrasи dotsenti*

[mirabdulla-turgunov@mail.ru](mailto:mirabdulla-turgunov@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada Iridaceae oilasiga mansub turlarning tarqalishi, O'zbekiston florasida mavjud turlar, oilaga mansub turlarning dorivorlik xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari Iridaceae oilasiga mansub turlarning ilmiy tibbiyat va xalq tabobatida qo'llanilishi bo'yicha ma'lumotlar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Iridaceae, xalq tabobati, flora, Juno, Iris, dorivor o'simliklar, introduksiya.

**Аннотация:** В статье приведены сведения о распространении видов семейства Иридовые, видах, присутствующих во флоре Узбекистана, и лечебных свойствах видов, принадлежащих к семейству. Кроме того, проанализированы данные об использовании видов семейства Иридовые в научной медицине и народной медицине.

**Ключевые слова:** Iridaceae, народная медицина, флора, Juno, Iris, лекарственные растения, интродукция.

**Abstract:** The article provides information on the distribution of species of the Iridaceae family, species present in the flora of Uzbekistan, and the medicinal properties of species belonging to the family. In addition, data on the use of species of the Iridaceae family in scientific medicine and folk medicine are analyzed.

**Keywords:** Iridaceae, folk medicine, flora, Juno, Iris, medicinal plants, introduction.

Bugungi kunda o'simliklarning biologik xilma-xilligi va ekologik barqarorlik muammolari, tabiiy floraning noyob va endem o'simliklarini saqlab qolish va ulardan xalq tabobati va ilmiy tibbiyatda foydalanish muhim global muammolardan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, floraning noyob va kamayib borayotgan turlarini o'rganish, ulardan farmatsevtika va xalq xo'jaligida samarali foydalanish, saqlab qolish yo'llarini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega.

Dunyoda Iridaceae oilasining 1800 dan ortiq turi ro'yxatga olingan bo'lib, ulardan 40 dan ortiq tur O'zbekiston florasining manzarali o'simliklari hisoblanadi.

Oila vakillari turli maqsadlarda keng qo'llanilishiga qaramasdan, ularning aksariyati yuqori manzaralilik xususiyatiga ega. Buning natijasida ularning tabiiy populyatsiyalari soni kamayib bormoqda. "O'zbekiston qizil kitobi"ning so'nggi nashri buning yaqqol misolidir.



**1-rasm. Introduksiya sharoitida ko'paytirilayotgan Iris korolkowii**

**Rgl.**

Lekin bu oila vakillarining dorivorlik xususiyatlari haqida adabiyotlarda kam ma'lumotlar keltirilgan bo'lib, oila vakillarining tibbiyat va xalq tabobatida

qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ko‘plab savollarga javob topishga imkon beradi.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida o‘simliklarni himoya qilish va ulardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Ekotizimlarni, tabiiy alohida obyektlarni muhofaza qilish sohasida aniq vazifalarni hal etish, inson va atrof muhitning mmuvozanatli munosabatlarini rivojlantirish kompleks tadbirlar ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasining kelgusi rivojlanish strategiyasi atrof-muhit degradatsiyasining inson salomatligiga ta’sirini kamaytirish borasida bir qator ilmiy-amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 21 sentabrdagi 409-son “O‘simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Xarakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagи PQ-251-sonli “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda yetishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 20 may, PF-139-sonli “Dorivor o‘simliklar xom ashyo bazasidan samarali foydalanish, qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlash orqali qo‘srimcha qiymat zanjirini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida mahalliy floramizga mansub noyob va xalq xo‘jaligi uchun ahamiyatli o‘simliklarni o‘rganish qay darajada muhim ekanligini ko‘rsatib turibdi.

O‘rta Osiyo *Iris* L. turkumi *Scorpiris* Spach. kenja turkumi turlarining xilma-xillik markazlaridan biri hisoblanadi. Yunona nomi bilan atalgan (*Juno* Tratt. turkumi) bu kenja turkumning O‘rta Osiyoda 30 dar ortiq turi tarqalgan bo‘lib [1], u barcha turlarning yarmidan ko‘pini tashkil qiladi [2].

Gulsafstarlar oilasi vakillari orasida *Iris pallida* L., *I. Florentina* L., *I. pseudacorus* L. turlari singari dorivor xususiyatga ega turlar uchraydi. Oila vakillari Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. Tog‘li hududlardan tashqari Buxoro va Qarshi viloyatlarinig cho‘lli hududlarida ham oila vakillarini uchratish

mumkin. Gulsafstarlar qadimiy tabobatda ham uzoq asrlardan beri qo'llanib kelinadii [6].

Oila vakillarinig kiyoviy tarkibi yetarlicha o'rganilmagan. Gulsafstarlarning bargida binafsha hidli efir moylari, tanin, kraxmal, iridin glikozidi aniqlangan. Efir tarkibidagi asosiy komponent iron keton moddasi hisoblanadi. Bundan tashqari barg va poyalarda S vitamini, oshlovchi moddalar, violoksantin moddalari mavjud. Oila vakillarining piyozbosh va ildizpoyalarida iridin, kraxmal, organik kislotalar, irigenin, nigrinsin, irilon kabi moddalar ajratib olingan [9]. Gulsafstarlar ildizida fenol moddalar, kumarinlar, gispidulin, magniferin va turli flavanoidlar aniqlangan [8].

Botqoq gulsafstaridan (*I. pseudacorus*) ajratib olingan efir moyi tarkibida kurkumin polifenoli, turli karotinoidlar ajratib olingan [7].

Qadimiy tabobatda gulsafstarlardan turli kasallikkarni davolash va oldini olishda foydalanishgan. Jumladan, nafas yo'llari kasallikkari, jigar, taloq, bachadon kasallikkari va gemorroyni davolashda foydalanishgan. Gulsafstaridan tayyorlangan damlamalar orqali yiringli yaralar va toshmalar davolangan. Ildizi asal bilan birga vitiligo va turli dog'larni, teri kasalliklarini bartaraf etishda samarali qo'llanilgan.

Gulsafstar ildizi sirka bilan, yoki bug'doy uni bilan birlgilikda kuyish va yaralar uchun foydalaniladi [3; 4; 5].

O'simlikdan ajratib olingan shira yuz terisiga surilganda seckillarni kamaytiradii. Gulsafstar ildizi vino bilan qabul qilinganda siydik xaydovchi, chayon chaqqanda, quloq og'rig'ida, samarali vosita sifatida ishlatiladi. Bir qism gulsafstar ildizini 1/5 sirka va asal bilan mis idishda quyuq holga kelgunicha qaynatish kerak. Bu moddani yaralar va teridagi dog'larga surish tavsiya qilinadi. Gulsafstar moyi pushtirang bo'lib, ichak shamollashi, bachadon kasalliklarida naf keltiradi. Gulsafstar urug'i uyqu dorisi sifatida qo'llanilgan. Zaharli hasharotlar chaqqanda ham antitoksin vazifasini bajaradi. Ildiz damlamasi bilan og'iz chayqalsa tish og'rig'ini, quloqqa tomizilganda quloq og'rig'ini qoldiradi. 50 gramm tog' gulsafstarini 3 litr shakarli suv bilan past olovda qaynatilganda tinchlantiruvchi damlama tayyor bo'ladi. Bu damlama quvvatsizlikda ham yaxshi

ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bundan tashqari damlama astma, yo'tal, tomoq og'rig'i, jigar va taloq kasalliklarida foydali hisoblanadi [5].

Xulosa qilib aytganda *Iridaceae* oilasi vakillariga nafaqat manzarali yoki ko'kalamzorlashtirish uchun qo'llaniladigan ob'yekt sifatida emas, balki dorivor va xalq tabobati uchun uzoq yillardan beri foydalanib kelinayotgan o'simliklar sifatida qarash va ilmiy tibbiyat, farmatsevtika uchun ham istiqbolli ob'yekt sifatida tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vvedenskiy A.I. Rod *Juno* Tratt. – Yunona//Opredelitel rasteniy Sredney Azii. - Tashkent: Fan, 1971. - T. II. - S. 132-139.
2. Ikinci, N., Hall, T., Lledo et al. Molecular phylogenetics of the juno irises, *Iris* subgenus *Scorpiris* (*Iridaceae*), based on six plastid markers//Botanical Journal of the Linnean Society. 2011. 167, 281 – 300.
3. Abu Ali ibn Sino. Kanon vrachebnoy nauki II-tom Tashkent, 1996.
4. Amasiatsi Amirdovlat. Nenujnoye dlya neuchey M., Nauka 1990.
5. Zohidov X. Kanzi shifo (Sokrovishnitsa zdorovya)-Dushanbe Irfon 1991.
6. Karomatov I. Dj. Prostiye lekarstvenniye sredstva. Buxara «Durdonga» 2012.
7. Levko G.D., Gins M.S., Zdolnikova YE.A., Baykov A.A., Turushina V.M. Vliyaniye summarnogo soderjaniya vodorastvorimix antioksidantov v kornevishax na zimostoykost sortov irisa sadovogo (*Iris hybrida* L.) - Ovoshi Rossii 2016, 1(30), 76-81.
8. Mykchailenko O.O., Kovalyov M.V. Phenolic compounds of the genus Iris plants (*Iridaceae*) - Ceska Slov. Farm. 2016, Spring, 65(2), 70-77.
9. Roger B., Jeannot V., Fernandez X., Cerantola S., Chahboun J. Characterisation and Quantification of Flavonoids in *Iris germanica* L. and *Iris pallid* Lam. Resinoids from Morocco - Phytochem. Anal. 2012 Sep., 23(5), 450-455.